

## **ANSAMBL IJROCHILIGIDA O'ZBEK XALQ MUSIQA MADANIYATINING UMUMNAZARIY MASALALARI.**

*Gulliyeva Yulduzxon Yuldoshovna*

*TDPU tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimi musiqa ta'limi yo'nalishidagi ansambl ijrochiligiga oid o'quv fanlarida o'qitiladigan o'zbek xalq musiqa madaniyatining umumnazariy masalalari hamda ijod namunalari, shuningdek, mazkur san'atining o'ziga xos xususiyatlari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Etnomusiqashunoslar, og'zaki an'ana, folklorshunoslik, urf-odat, madaniyat, musiqa, raqs, xalq adabiyoti, mavsumiy-marosim, she'riy tarkib, ohang, usta-shogird maktabi.

Turkiy xalqlar o'zining mislsiz madaniy an'analari bilan qadim zamonlarga borib taqaladigan musiqiy merosi, turli musiqiy jabhalar hamda ma'naviy boy tasviriy vositalari bilan bizning davrimizgacha yetib kelgan. Musiqiy merosimizning boyligidan tarixiy kitoblarimiz, bizgacha yetib kelgan qadimiy manbalar bizga xabar beradi. O'zbek xalq musiqasi asrlar mobaynida olim-u etnograflar tomonidan turli yo'llar bilano'rganilib kelinmoqda. Masalan, o'zbek musiqa merosini to'plash va nota vositasida nashr etishida V. M. Uspenskiy, Yunus Rajabiy, Ilyos Akbarov, M. Yusupovlarning mehnatlari beqiyosdir. O'zbek xalq musiqasini to'plash, yozib olish va qayta ishlash, ilmiy-nazariy tadqiqot o'tkazishda mutaxassis olimlar, jumladan, etnomusiqashunoslar – F. Karomatov, R. Abdullayev, S. Begmatov, O. Matyoqubovlarning olib brogan etnografik ekspeditsiya xizmatlari katta.

O'zbek musiqa madaniyati ikki qatlamga bo'linadi:

1. Xalq musiqasi;
2. Og'zaki an'anadagi professional musiqa.

O'zbek musiqa merosining ko'rsatib o'tilgan har ikkala qatlami asrlar davomida og'zaki an'ana tarzida, ya'ni nota yozuvlarisiz, og'zaki ijod etish, og'zaki o'rganish va ijro etish orqali yetib keldi. Olimlar musiqa merosining ana shu tabiatini inobatga olgan holda xalq musiqasi folklorining bir turi, aniqrog'i – xalq og'zaki ijodi sifatida ta'riflaydilar va unga nisbatan “Musiqiy folklor” tushunchasini qo'llaydilar. Folklor namunalari jonli ijro sharoitida yaratiladi, rivojlanadi, tarqaladi. [1.] Folklor ijod namunalari xalqning boyligi hisoblanar ekan, ularni o'rganish ham hammavaqt dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Xalq og'zaki badiiy ijodini o'rganuvchi fan folklorshunoslik yoki folkloristika deb yuritiladi. Shu ma'noda folklorshunoslik asoslari qadimgi dunyo estetik tafakkuriga borib taqaladi. Qadimgi dunyo sayyohlari va tarixchilarining afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi qaydlari, yozuvchi va bastakorlarning folklor to'g'risidagi ilk fikrlari folklorshunoslik uchun muhimdir. Barcha davrlarning o'ziga xos urf-odat va madaniyati shakllanishi natijasida folklorshunoslik ham darajama daraja o'sib borgan. Arab xalifaligi hududlaridagi xalqlar ertak va rivoyatlarining yig'indisi bo'lmish —Ming bir kechal kitobini ham folklor namunalarini yig'ishda o'ziga xos tajriba deyish mumkin. [2.] Folklor atamasini 1846-yilda ingliz olimi Uiliyams Toms taklif qilgan bo'lib, u “xalq donoligi” degan tushunchani ifodalaydi. Aslini olganda, folklore deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari - ,e'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari tushuniladi. Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o'zi tanlagan turni “folklor” deb ataydi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me'morchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi. [3.] Dastlabki vaqtlarda “el adabiyoti”, “xalq adabiyoti”, “og'zaki adabiyot”, “xalq og'zaki ijodi” deb yuritilib kelingan o'zbek xalq og'zaki poetic ijodi ilk bor H. Zarifov (1934-1935-yillar) tomonidan qo'llanilgan “folklor”, “o'zbek folklori” sifatida keng ommalashdi. [4.] Xalq musiqiy ijodida qadimgi davr mehnatkash xalqining turmush tarsi hayotiy kechinmalari aks etadi. O'zbek xalq musiqasi qanday sharoit va qay tarzda ijro etilishi, qanday

hollarda foydalanilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Ma'lum vaqt yoki ma'lum sharoitdagina ijro etiladigan kuy-aytimlar: oilaviy marosim, mehnat qo'shiqlari, mavsumiy-marosim kuy-qo'shiqlari, diniy navolar hamda turli tantana, tomosha kabi marosimlarda ijro etiladigan cholg'u kuylari.

2. Istalgan vaqtda va har qanday sharoitda, ya'ni barcha joyda ijro etiladigan kuy-qo'shiqlar: o'zek xalq musiqa janrlari: qo'shiq, ashula, yalla, lapar, qarsak va shunga o'xshash turli cholg'u kuylari.

Xalq musiqasi tarkibiy sintetik janrdir. Bunda so'z, kuy va o'yin mujassamlashgan. Chunki musiqiy folklorda xalq xatti-harakati, xususan, mehnat jarayoni, urf-odatlariga boy marosimlarni o'tkazish uchun ko'rsatib o'tilgan uch unsur (so'z, kuy, rasq) muntazam ravishda bir-biri bilan aloqadorlikda ko'rinadi va bu holat sayl va boshqa oilaviy bayram tantanalarida ijro etiladi. Demak, so'z, kuy va raqs mushtarak holatlarini bir so'z bilan bayon etish maqsadida olimlar "aytim" atamasidan foydalanganlar. "Aytim" – bu musiqiy folklorning hozir bo'lish shakllaridan biridir. [5.] Xalq musiqasida "aytim" iborasi bilan birga unga ma'nodosh "kuylash" iborasi ham ko'p qo'llaniladi. Xalq aytimlari keng omma orasida mashhur bo'lib, bu turdagi ijro jamoa va yakka tartibdagi ijrochilar tomonidan aytiladi. Xalq aytimlarining she'riy tarkibini asosan barmoq vaznli xalq she'riyati tashkil etadi. She'riy misralar odatda so'z bo'g'inlariga qurilgan bo'lib, barmoq bilan sanaladi. Aytib o'tish joiki, misralararo hijo (bo'g'in) va usul mushtarakligi namoyon bo'ladi. Masalan, she'r misralari 4,5,7,8,9,10,11 va boshqa turoqda bo'lishi mumkin:

**a) To'rt bo'g'in – usulli misralar:**

1. Choriy, chan-bar.
2. Biri, an-bar.
3. .| .| .| .|
4. .| .| .| .|

**b) Besh bo'g'in – usulli misralar:**

1. O'rog'im olmos.

2. O'rimdan qolmas.
3. Sira ham tolmas.
4. O'rmasam bo'lmas.

.| .| .|) .|) .|

.| .| .|) .|) .|

**d) Yetti bo'g'in – usulli misralar:**

1. Seni haydab boqaman.
2. Ko'ztumorlar taqaman.
3. .| .| .|) .|) .|
4. .| .| .|) .|) .|

Shunday qilib o'zbek folklor musiqashunoslik sohasida “bo'g'in – usul” tushunchasi qo'llaniladi. Shu bilan birga aytimlarning she'riy asoslarida misralarning ma'lum tartibda qofiyalanishi kata ahamiyatga ega, chunki muntazam va izchil takrorlanuvchi bo'g'in – usulning to'g'ri tuzilishida, aytim namunalarini xotiraga keltirishda ko'makdosh vositadir. She'r misralari a a b a, a b a b, a a b b tartibda qofiyalanib, ularga ma'lum mazmun, uyg'unlik, ohamgdoshlik bag'ishlaydi.

1. *Turna desam turumli – a*
2. *Keng dalada qo'nimli – a*
3. *Turnalar uchsa pastlab – b*
4. *Rizqing kelar unumli – a*

Aytimlarning she'riy tarkibini to'rtlik bo'lgan xalq ruboiylari tashkil qiladi.

Aytimlarning asosiy qismini kuy-ohang tashkil qiladi. Shuningdek, musiqiy folklore namunalarini ijro etish uchun kasbiy ijrochilarga zarur bo'lgan va yillar davomida “usta-shogird maktabi”da o'rgatib kelingan ijro usullari va maxsus malakaga ega bo'lishi talab etilmaydi. Chunki xalq aytimlarining kuy tuzilishlari nisbatan tor ovoz ko'lamida asosn kvarta, kvinta va seksta intervali doirasida kuylashga mo'ljallangan. Kuy – ohanglari, ma'lum iboralari ko'p marotaba takrorlanib hamda davomli usul uzunliklari bilan ajralib turadi. [6.]

O'zbek xalq musiqasi yillar davomida ko'plab musiqashunos olimlar tomonidan o'rganib kelingan. Masalan, Abdurauf Fitrat, To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Viktor Uspenskiy, Ilyos Akbarov, M.Yusupovlarning mehnatlari beqiyosdir. Bu musiqashunos olimlarning har biri o'zbek xalq musiqasi tarixi va istoqbollari haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lgan asarlar, risolalar, qo'llanmalar yaratganlar. Ayniqsa, Yunus Rajabiyning o'zbek musiqa merosini to'plashdagi xizmatlari katta. U 1935 yildan xalq, kuy va ashulalarini notaga yoza boshlagan. Natijada Ye.Romanovskaya va Il.Akbarov tuzgan «O'zbek xalq qo'shiqlari» (1939) to'plamidan Yunus Rajabiy notaga olgan 29 ta xalq musiqa namunasi o'rin olgan. 1955-1959- yillarda Yunus Rajabiy 5 jildli «O'zbek xalq musiqasi» (I.A.Akbarov tahririda) to'plamini nashr ettirdi. Unga mingga yaqin turli janrdagi o'zbek (bir qancha tojik, uyg'ur) kuy va ashulalari, Buxoro Shashmaqomi, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, katta ashulalar, 20-asr bastakorlarining asarlari kiritilgan. [7.] Qo'shiq termini ilk bor tahminan XI asrlardada bitilgan ilmiy adabiyotlarning bizgacha yetib kelgan eng qadimiysi hisoblangan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida qo'shiq shaklida berilgan va bu so'zning izohi she'r, qasida deb ko'rsatilgan. Shuningdek "qo'shiq" so'zini Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida, XII asrda yozilgan Mahmud Zamahshariyning "Muqaddimatul adab "lug'atida ham shu ma'nolarda uchratish mumkin. Umuman olganda, o'zbek xalq musiqasi uzoq tarixga borib taqalishi, boy ma'naviy xazinaga, sinovli va ibratli o'tmish-u bugunga egaligini ko'rish mumkin. O'zbek xalq og'zaki ijodining musiqa san'ati va madaniyati bilan bog'liq bo'lgan afsona va rivoyatlar mashhur tarixiy siymolar Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Mashrab va boshqalar nomiga bog'lanadi. Amir Temur o'z siyosiy safarlarini ma'naviy jihatdan boyitish maqsadida baxshilarga doston qilib kuylashni topshirgan, To'xtamish saroyida Kamolzoda va Jahon Mirzo kabi jirovlar bo'lgan xalq dostonlariga yaqin shaklda yozilgan "Abo Muslim" kitobi XII asrda yaratilgan. Barchaga tanish va yetarlicha mashhur bo'lgan o'zbek xalq og'zaki ijodi namunasi hisoblangan doston kichik hajmdagi folklor qo'shiqlarining yuzaga kelishiga ham muhim ahamiyat kasb

etgan. [10.] Qadim zamonlardam turkiy xalqlar soʻzning inson maʼnaviyati va tarbiyasiga taʼsirining kuchliligiga qattiq ishongan, shu bilan bir qatorda xalq oʻzining noyob folklor janridagi qoʻshiqlari hamda boshqa koʻplab janrdagi asarlarni soʻz moʻjizasi va musiqaning sehrli ohangi bilan kashf etgan. Folklor qoʻshiqlarini yozishda kattalar ham bolalar bilan bir qatorda, bir xil hissa qoʻshgan. Bolalar folklore qoʻshiqlari bolalarga xos boʻlgan insoniy fazilatlarini: doʻstlik, Vatanga, oilaga muhabbat, sadoqat, ahillik, sofdillik, insoflilik, vijdonlilik, ezgulik uchun kurashish singarilarni kuylagan. Kattalar esa kichiklarni maqqtash, erkalash, ularni maʼnan va jismonan qoʻllab-quvvatlash maqsadida shu mavzudagi qoʻshiq-kuylarni ijro etganlar. Bunday qoʻshiqlarga alla, aytim, olqish, ovutmachiq, qiziqmachiq singari erkalash xususiyatlariga ega boʻlgan bu janrlar onalik folklori namunalari misol boʻla oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Ibrohimov O. Oʻzbek xalq musiqa ijodi. – Toshkent. Metodik tavsiyalar, 1994, b.10.
2. Jarashbayev N. Oʻzbek folklorshunosligi, tarixi va uning adabiyotdagi oʻrni. – Toshkent. 2021, b.2
3. Introduction to Folklore. London, 2008. Page 7.
4. Joʻrayev M, Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2017. B.12.
5. Ibrohimov O. Oʻzbek xalq musiqa ijodi. – Toshkent. Metodik tavsiyalar, 1994, b. 40.
6. Turdiyev Sh. Oʻzbek xalqining musiqa ijrosi va uning anʼanalari. – Toshkent. 2023, b.b.4
7. Turdiyev Sh. Oʻzbek xalqining musiqa ijrosi va uning anʼanalari. – Toshkent. 2023, b..4
8. Юлдошев, У. Ю. (2020). РОЛЬ АРТИКУЛЯЦИИ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЕ МАКОМА. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 87-89).
9. Юлдошев, У. Ю. (2019). Музыка укитувчиси мутахассислигининг замонавий модели ва профессиограммаси. Современное образование (Узбекистан), (9 (82)), 47-53.
10. Yuldoshev, U. (2023). EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH CULTURAL AND ARTISTIC EVENTS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(12), 342-345.
11. Yuldoshev, U. (2018). Problems of Choosing Methods and Technologies in Musical Pedagogics. Eastern European Scientific Journal, (2).